

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**SAIDOV SAMANDAR MUZAFFAROVICH**

**SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN MA’LUMOTLARNI BOSHQARISH  
AXBOROT TIZIMI**

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on technical sciences**

<b>Saidov Samandar Muzaffarovich</b> Shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimi.....	3
<b>Сайдов Самандар Музффарович</b> Информационная система управления персонализированными данными.....	21
<b>Saidov Samandar Muzaffarovich</b> Development of a personalized information management system.....	42
<b>E’lon qilingan ishlar ro‘yxati</b> <b>Список опубликованных работ</b> List of published works.....	45

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.13/30.12.2019.T.07.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT  
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI**

**SAIDOV SAMANDAR MUZAFFAROVICH**

**SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN MA’LUMOTLARNI BOSHQARISH  
AXBOROT TIZIMI**

05.01.10 – Axborot olish tizimlari va jarayonlari

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.1.PhD|T5318 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mo'minov Bahodir Boltayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Xamdamov Utkir Raxmatillaevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Kalandarov Ilyos Ibodullayevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "11 deka b2" soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy, Tel.: (99871) 238-64-43, e-mail: [tuit@tuit.uz](mailto:tuit@tuit.uz)).

Dissertatsiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (382 - raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy, Tel.: (99871) 238-64-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "29 noyabr" kuni tarqatildi.  
(2025-yil "29 noyabr" dagi 32 raqamli reestr bayonnomasi).



**M.M. Musayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash raisi,  
texnika fanlari doktori, professor

**E.Sh. Nazirova**  
Ilmiy darajalar beruvchi  
ilmiy kengash ilmiy kotibi,  
texnika fanlari doktori, professor

**Dj.B. Sultanov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
huzuridagi ilmiy seminar raisi,  
texnika fanlari doktori, dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Jahonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimlarini takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, veb-resurslarda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tarzda boshqarish va tahsil qilish, foydalanuvchilarning ehtiyojlarini aniqlash hamda ular asosida individual tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bunday jarayonlarni samarali tashkil etish uchun axborot modellari va ilg‘or usullardan foydalanish talab etiladi. Kognitiv yondashuv asosida yaratilgan modellar hamda intellektual algoritmlar esa foydalanuvchi profillarini to‘liq va ishonchli tarzda aks ettirish imkonini beradi. Jumladan, foydalanuvchiga eng zarur va dolzarb ma’lumotlarni taqdim etuvchi, shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirilgan axborot tizimlarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimlarini takomillashtirish, foydalanuvchi faoliyati va qidiruv so‘rovlari asosida avtomatlashtirilgan nazoratni amalga oshirish, ma’lumotlarni masofadan turib qayta ishslash va boshqarish, foydalanuvchilarga avtomatlashtirilgan xizmatlarni ko‘rsatish, hamda ko‘p bosqichli axborot almashish jarayonlarini takomillashtirish bo‘yicha modellardan foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga turli sohalardagi axborot tizimlari o‘rtasida integratsiyani ta’minalash, foydalanuvchi ehtiyojlariga mos tavsiyalarni shakllantirish individual hamda guruhiy profilga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini avtomatlashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda rivojlangan davlatlar AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Xitoy, Polsha, Rossiya Federatsiyasi, Ozarbayjon, Qozog‘iston va boshqa mamlakatlar tajribasidan o‘rganilgan holda, shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish jarayonlarini samarali tashkil etish, tavsiyalarni muvofiqlashtirish va foydalanuvchi uchun eng dolzarb ma’lumotlarni avtomatik tarzda taqdim etishning intellektual-uslubiy asoslarini ishlab chiqish zarur bo‘lmoqda.

Respublikamizda turli soha va korxonalarining axborotlashuv darajasini oshirish jarayonida raqamli texnologiyalar hamda apparat-dasturiy vositalarni intellektual boshqarish tizimlari asosida ma’lumotlarga ishlov berishning optimal usullari va mexanizmlarining milliy kontentini yaratish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonida ham boshqaruv tizimlariga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimlarini rivojlantirish, foydalanuvchilarning doimiy ehtiyojlarini inobatga olgan holda avtomatlashtirilgan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli infratuzilmani mustahkamlash, zamonaviy dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish hamda turli ma’lumotlar bazalarini yagona integratsion platformaga birlashtirish dolzarb masalalardan hisoblanadi. Jumladan ma’lumotlarga ishlov berish jarayonlarini

ratsional boshqarish, ko‘p bosqichli axborot almashishning konseptual va ehtimoliy modellarini ishlab chiqish, foydalanuvchi profillariga asoslangan tavsiya algoritmlari va dasturiy vositalarni yaratish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalalari biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-son Farmoniga muvofiq, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha ustuvor vazifalarni amalga oshirish maqsadida, davlat organlari, shu jumladan mahalliy hokimlik organlarida hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda 214 ta axborot tizimi va dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish vazifalarini amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma’lum darajada xizmat qiladi<sup>1</sup>.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalarini rivojlanishining IV. “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darjasи.** Shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish va tavsiya tizimlari bo‘yicha xorijiy va o‘zbek olimlari tomonidan keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xorij olimlari orasida A. Kitov, C.Shannon, P.Chen va V.Mixaylovichlar ma’lumotlarni shaxsga yo‘naltirish modellarini va algoritmlarini ishlab chiqishga katta hissa qo‘shgan. Tavsiya tizimlari bo‘yicha esa D. Babenko, Y.Koren, R.Burk va M.Goryachev muhim tadqiqotlar olib borgan.

Respublikamizda axborot tizimlari va jarayonlarini tahlil qilish bo‘yicha M.Raxmatullaev, B.Mo‘minov, U.Hamdamov, J.Elov, O.Asqaraliyev, J.Usmonovlar shug‘ullangan. Shu bilan birga M.Musayev, H.Zayniddinov, A.Nishanov, S.Mahmudjanov, I.Tojimamatov va O.Sadullayev ma’lumotlarni qayta ishslash va raqamli ishlov berish, axborot tizimlari va jarayonlari arxitekturasi, filtrlash usullarining nazariy va amaliy tahlili, shuningdek klasterlash algoritmlarini ishlab chiqish va qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib bormoqdalar.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimlarini rivojlantirish yo‘nalishiga katta e’tibor qaratilmoqda. Mazkur sohada olib borilayotgan tadqiqotlar nafaqat axborot texnologiyalarini takomillashtirish, balki ularni turli sohalarda, xususan, ta’lim, sog‘liqni saqlash, elektron tijorat va boshqaruv tizimlarida samarali qo‘llashga ham qaratilgan. Shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimlari sohasida faoliyat yuritayotgan olimlar tomonidan foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish, ma’lumotlarni shaxsiy ehtiyojlarga moslashtirish, hamda intellektual tavsiya algoritmlarini ishlab chiqish bo‘yicha

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”.

muhim ilmiy natijalarga erishilgan. Biroq soha bo‘yicha olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ma’lumotlarni shaxsga yo‘naltirish, ularni boshqarish jarayonlari hamda foydalanuvchi xatti-harakatlari asosida tavsiyalarni shakllantirish masalalari hali ham yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalar bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti T.I. 77-8025104118-sonli “Axborotlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha yangi ilmiy ishlanmalar va tendensiyalarga qarab ilgari surilgan innovatsion g‘oyalar banki” (2024-2025) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** foydalanuvchining xatti-harakatlari va axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini tahlil qilish asosida shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimi ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

ma’lumotlarni shaxsga yo‘naltirish sohasidagi nazariy va amaliy ishlanmalarni o‘rganish va tahlil qilish;

ko‘p bosqichli qaror qabul qilish asosida shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimining funksional tuzilmasi va axborot modelini ishlab chiqish;

foydalanuvchi navigatsiya ma’lumotlari asosida veb-sahifalarning relevantlik darajasini aniqlovchi modelini takomillashtirish;

ma’lumotlarni boshqarish jarayonlarida shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimi uchun foydalanuvchi xatti- harakatlari asosida kognitiv modelini ishlab chiqish;

kategorik klasterlash usuli asosida foydalanuvchilarning doimiy va joriy axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash jarayonlarini amalga oshirish algoritmlarini ishlab chiqish;

**Tadqiqot obyekti** kontentlarni boshqarish axborot tizimida, ma’lumotlarni shaxsga yo‘naltirish jarayonlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** axborot tizimida foydalanuvchi xatti-harakatlari asosida profil yaratish, klasterlash usuli, relevansni baholash va tavsiya shakllantirish jarayonlarini ta’minlaydigan modellar, algoritmlar va dasturiy vositalari tashkil etadi.

**Tadqiqot usullari.** Shaxsga yo‘naltirilgan model ishlab chiqishda, klasterlash algoritmi, ma’lumotlar bilan ishlash, matematik statistika va tavsiyalar samardorligini aniqlovchi usullaridan foydalanilgan.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quydagilardan iborat:

ko‘p bosqichli qaror qabul qilish asosida shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimining funksional tuzilmasi va axborot modeli ishlab chiqilgan;

foydalanuvchi navigatsiya ma’lumotlari asosida veb-sahifalarning relevantlik darajasini aniqlovchi model takomillashtirilgan;

ma’lumotlarni boshqarish jarayonlarida shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimi uchun foydalanuvchi xatti- harakatlari asosida kognitiv modeli ishlab chiqilgan;

kategorik klasterlash usuli asosida foydalanuvchilarning doimiy va joriy axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini aniqlash jarayonlarini amalga oshirish algoritmlarini ishlab chiqilgan;

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

oligan nazariy natijalar asosida ma’lumotlarni boshqarish axborot tizmi uchun shaxsga yo‘naltirilgan axborot model ishlab chiqildi;

ma’lumotlarni boshqarish tizimi samaradorligini oshirish maqsadida shaxsga yo‘naltirilgan algoritmlar yaratildi hamda amaliyotga tadbiq qilindi;

ishlab chiqilgan shaxsga yo‘naltirilgan model o‘quv tajriba orqali baholandi va foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos keluvchi tizim sifatida tasdiqlandi.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda ma’lumotlarni shaxsga yo‘naltirish axborot tizimlari bo‘yicha mavjud nazariy va amaliy ishlanmalar chuqur tahlil qilingan. Shaxsga yo‘naltirilgan tizimlar foydalanuvchi profillarini shakllantirish bo‘yicha ilg‘or usullarga tayangan holda model va algoritmlar ishlab chiqilgan. Klasterlash algoritmlari qiyosiy tahlili natijasida Clope eng mos algoritm sifatida tanlandi, bu esa tanloving asosli ekanligini ko‘rsatadi. Ishlab chiqilgan shaxsga yo‘naltirilgan model va algoritmlar amaliy tajribalar asosida sinovdan o‘tkazildi. Axborot tizimi yaratilganligi hamda tegishli guvohnomalar va joriy qilinganlik to‘g‘risidagi dalolatnomalar bilan asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati veb-sayt foydalanuvchilari uchun shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimlarini yaratish bo‘yicha yangi yondashuvlar va modellar ishlab chiqildi. Bu ilmiy asoslangan yondashuvlar, foydalanuvchilarning individual harakatlari va qidiruv profillarini chuqur tahlil qilish bilan shakllantirilgan. Qidiruv va navigatsiya profillarini samarali klasterlash bo‘yicha yangi algoritmlar sinovdan o‘tkazildi. Clope algoritmi tadqiqot doirasida eng mos bo‘lib topildi, bu esa klasterlash jarayonida yangi imkoniyatlar ochadi va ilmiy izlanishlarga yangi yo‘nalish beradi. Tadqiqotda shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimining kognitiv, IDEF0, IDEF1x axborot modellari ishlab chiqildi, bu esa ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimlarining foydalanuvchi ehtiyojlariga mos ravishda rivojlanishi uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati foydalanuvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirilgan maxsus PersonLix dasturiy platformasi ishlab chiqildi. Bu platforma foydalanuvchilarga moslashtirilgan axborotlarni taqdim etish va ulardan foydalanishni soddalashtiradi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan modellar va algoritmlar veb-sayt ma’lumotlarini foydalanuvchilarning ehtiyojlariga mos ravishda shaxga yo‘naltirishga imkon beradi. Bu esa foydalanuvchi tajribasini sezilarli darajada yaxshilash va axborot oqimlarini boshqarishni optimallashtirishga xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan axborot modeli amaliyotga tatbiq etildi va sinovdan o‘tkazildi, bu esa platformaning real sharoitlarda foydalanuvchi ehtiyojlarini samarali qonatlantirish qobiliyatini tasdiqladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish tizimi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar va rivojlantirilgan algoritmlar

asosida maxsus shaxsga yo‘naltirilgan model ishlab chiqildi. Ushbu tizim veb-sayt foydalanuvchilari uchun qidiruv va navigatsiya jarayonlarida individual ehtiyojlarga mos ravishda moslashtirilgan axborotlarni taqdim etishni ta’minlaydi.

Foydalanuvchi extiyojini qanoatlantirishga qaratilgan klasterlash usuli asosida ishlab chiqilgan algoritmlar O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetiga tadbiq etildi. Ushbu tizim universitet foydalanuvchilari uchun mos ma’lumotlarni filtrlash va ularga mos keluvchi axborot taqdim etish imkoniyatini oshirdi. (O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotnoma №4/17-103/2-son 13.02.2025y.). Sinov natijalari shuni ko‘rsatdiki, axborot qidiruvi jarayoni sezilarli darajada tezlashdi, tavsiyalar samaradorligi esa 4–6% ga oshdi.

Tadqiqot natijasida yaratilgan shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimi modeli Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida mazkur tizim sinovdan o‘tkazildi. (O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotnoma №4/17-103/2-son 13.02.2025y.). Tizim foydalanuvchilar navigatsiya jarayonini optimallashtirish va shaxsga yo‘naltirilgan tavsiyalar berish uchun ishlatildi. Bu joriy etilgan tizim foydalanuvchi ehtiyojlarini yanada aniqroq tushunish va axborotlarni tezkorlik bilan taqdim etish imkonini berdi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimi MCHJ QK “SIMPLEX ITC” kompaniyasida joriy etildi. Tizim foydalanuvchilarning ehtiyojlariga asoslangan holda individual tavsiyalar shakllantirish imkoniyatini yaratdi. (O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotnoma №4/17-103/2-son 13.02.2025y.). Tajriba natijalariga ko‘ra tizimning ishslash samaradorligi 6-8% ga yaxshilandi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta, jumladan 3 xalqaro va 4 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusini bo‘yicha 24 ta ilmiy ish jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan 3 ta xorijiy va 5 ta Respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek 3 ta EHM uchun dasturiy mahsulotlarga guvohnomalar olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish qismi, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati, shartli belgilar va atamalar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 108 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbliji va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot ob’ekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning

ishonchhligi asoslab berilgan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Ma'lumotlarni boshqarish axborot tizimini rivojlanish tendensiyasi"** nomli birinchi bobida ma'lumotlarni boshqarish axborot tizimlarining shaxsga yo'naltirish darajalari, yani foydalanuvchilarning individual ehtiyojlari, qiziqishlari, harakatiga mos ravishda ma'lumot va xizmatlarni taqdim etish yondashuvlari tahlil qilingan.

**1-jadval. Ma'lumotlarni boshqarish axborot tizimlari tahlili**


Xususiyatlari	PrestaShop	UMI	Muvsayt	Oqila	Ulkan	T.E- AT
SEO optimizatsiya	+	+	+	+	+	+
Xavfsizlik	+	+	+	+	+	+
Ko'p sohali	+	+	-	+	+	+
Kengaytirilish va sozlash	+	+	+	+	-	+
Zamonaviy interfeys	+	+	+	+	-	+
Klasterlash	-	-	-	-	-	+
Relevance	-	-	-	-	-	+
Kontent (filtrlash)	+	+	-	-	-	+
Hamkorlik (filtrlash)	-	-	-	-	-	+
Gibrid (filtrlash)	-	-	-	-	-	+

Jadval asosida tahlil qilinganda, PrestaShop, UMI, Muvsayt, Ulkan va Oqila kabi mashhur CMS tizimlarining umumiy jihatlari va farqlari yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning barchasi qidiruv tizimini optimallashtirish, xavfsizlik va foydalanuvchi boshqaruvi borasida yetarli darajada imkoniyatlarga ega bo'lsa-da, boshqa jihatlar, ma'lumotlarni shaxsga yo'naltirish darajalari bo'yicha sezilarli farq qilmoqda. Taklif etilayotgan axborot tizimida foydalanuvchi ehtiyojlariga mos klasterlash imkoniyati mavjud bo'lib, bu foydalanuvchilarning shaxsiy xattiharakatlariga asoslangan tavsiyalarni shakllantirish imkonini beradi.

Dissertatsiyaning **"Ko'p bosqichli qaror qabul qilish jarayonlarida shaxsga yo'naltirilgan ma'lumotlarni boshqarish axborot tizimining funksional tuzilmasi va axborot modeli ishlab chiqish"** nomli ikkinchi bobida foydalanuvchi ehtiyojlarini chuqur tahlil qilishga asoslangan shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimining funksional tuzilmasi ishlab chiqildi. Tizim komponentlari o'rtasidagi axborot oqimlari va bog'liqliklarini ifodalash uchun IDEF0 modeli, ma'lumotlar bazasi tuzilishini belgilash uchun IDEF1x modeli ishlab chiqildi. Ushbu modellar tizimning yaxlitligi va samarali ishlashini ta'minlovchi konseptual asos sifatida xizmat qiladi.


Shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimining funksional tuzilmasi uning komponentlari o'rtasidagi munosabatlarni va ularning tashqi muhit bilan qanday aloqada bo'lishini belgilovchi konseptual modeldir. Funksional tuzilma tizimni samarali ishlab chiqish, boshqarish va rivojlantirish uchun muhim bo'lgan asosiy tamoyillarni belgilaydi. Bunday tizimlar dinamik modullarga asoslanib, foydalanuvchilarning qiziqishlari va o'zaro aloqalarini real vaqt rejimida qayta ishlash orqali moslashuvchan ma'lumot taqdimotini ta'minlaydi. Axborot tizimining

funksional tuzilmasini aniqlashda asosiy maqsad foydalanuvchi bilan tizim o'rtasidagi aloqalarni boshqarish, ma'lumotlar oqimini tartibga solish va mos tavsiyalarni shakllantirish uchun zarur bo'lgan asosiy funksional modullarni aniqlashdan iborat.




**1-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimining funksional tuzilmasi**

Tadqiqot doirasida foydalanuvchi ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish va ularga mos axborot taqdim etish imkonini beruvchi shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimining IDEF0.



**2-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimining IDEF0 modeli**

Axborot tizimlarini samarali loyihalash va ma'lumotlar bazasining mantiqiy tuzilmasini to'g'ri shakllantirish zamonaviy dasturiy va texnologik yechimlarning muhim bosqichlaridan biridir. Ushbu maqsadlarda qo'llaniladigan modellashtirish metodologiyalaridan biri bu IDEF1x modelidir.



3-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimining IDEF1x modeli

Dissertatsiyaning **“Shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimida qidiruv profillarini klasterlash va ko'p omilli relevans modelni ishlab chiqish”** nomli bobida foydalanuvchi ehtiyojlarini tahlil qilishga asoslangan algoritm, kognitiv model va ko'p omilli relevans modelni ishlab chiqildi. Foydalanuvchining doimiy axborot ehtiyojlarini aniqlash uchun qidiruv profili Jaccard metrikasi yordamida tahlil qilinib, so'rovlar mos klasterlarga biriktirildi. Ma'lumotlarni shaxsga yo'naltirishda CLOPE algoritmi qo'llanilib, foydalanuvchilar profillari samarali guruhlandi.

2-jadval. Klasterlash algoritmlarining samaradorlik taqqoslanishi

Algoritm	To'g'ri ajratish (%)	Hisoblash vaqt
DBSCAN	88%	3–5 soniya
K-Means	90%	1–3 soniya
Fuzzy C-means	92%	5–10 soniya
CLOPE	95%	1–2 soniya
Hierarchical	88%	10–15 soniya
BIRCH	90%	1–2 soniya


Tajriba jarayonida maxsus tanlangan dataset asosida turli klasterlash algoritmlari sinovdan o'tkazildi. Har bir algoritmning to'g'ri ajratish darajasi va hisoblash vaqtini tahlil qilindi. Olingan natijalar CLOPE algoritmining eng yuqori aniqlik va tezlik ko'rsatkichlarini namoyish etdi.

Clope algoritmi yuqoridagi xususiyatlari bilan katta o'lchamdagini, kategorik xarakterga ega bo'lgan ma'lumotlar ustida klasterlash vazifalarini bajarishda samarali vosita hisoblanadi.

$$profit(Cqp, r) = \frac{\sum_{i=1}^k \frac{S(Cqp_i)}{W(Cqp_i)} \times |Cqp_i|}{\sum_{i=1}^k |Cqp_i|} \quad (1)$$

bu yerda  $S(Cqp_i)$  –  $i$ -klasterdagi barcha so'rovlari soni,  $W(Cqp_i)$  –  $i$ -klasterdagi har xil so'rovlari soni,  $|Cqp_i|$  – klaster ichidagi qidiruv profillarining soni,  $k$  – klasterlar soni,  $r$  – normallashtirish parametiri,  $r = 2$  qiymatga teng.

Shaxsga yo'naltirilgan axborot tizimlarining samaradorligini oshirishda foydalanuvchining qidiruv so'rovlari tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa foydalanuvchining ma'lum bir vaqtida bergen so'rovi boshqa foydalanuvchilarning ilgari bergen so'rovlari bilan o'xshash yoki yaqin ma'no kasb etsa, bu holat ularning axborot ehtiyojlari o'rtasida umumiyligini ko'rsatadi.



4-rasm. So'rovlari o'xshashligi va samaradorligini aniqlash


So'rovlari o'xshashliligi aniqlashda turli o'lchovlar Jaccard, Dice, Levenshtein va Jaro-Winkler koeffitsientlari asosida taqposlash ishlari amalga oshirildi. Qidiruv so'rovlaringin o'xshashlik o'lchovi Jakkard mezoniga asoslanadi:

$$Jac(A, B) = \frac{|A \cap B|}{|A \cup B|} \quad (2)$$

bu yerda  $A$  – birinchi qidiruv so'rovi to'plami,  $B$  – ikkinchi qidiruv so'rovi to'plami.

Klasterlash natijasida olingan guruhlashlar orqali eng dolzarb va foydali havolalar ajratib olindi. Keyingi bosqichda esa foydalanuvchining joriy ehtiyojlarini

aniqlashga qaratilgan algoritm taklif qilindi. Bu algoritm real vaqtli xatti-harakatlar, so‘nggi sahifa tashriflari va sessiya davomida bajarilgan amallar asosida moslashtirildi. Natijada tizim foydalanuvchining hozirgi holatiga eng mos havolalarni aniqlay oladi. Shunday qilib, tavsiya etiladigan havolalar to‘plami doimiy va joriy ehtiyojlarni birgalikda inobatga olgan holda shakllantirildi. Ushbu yondashuv foydalanuvchiga shaxsiylashtirilgan, dolzarb va samarali axborotni tezkor tarzda taqdim etish imkonini beradi. Foydalanuvchi joriy extiyojlarini qanoatlantirishga yo‘naltirilgan algoritm ishlab chiqildi.




**5-rasm. Foydalanuvchining doimiy axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga yo‘naltirilgan algoritm**

Tadqiqot ishida sahifa dolzarbligini baholashda qo‘llaniladigan mavjud bir necha modelning imkoniyatlari tahlil qilinib, ularning kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida takomillashtirilgan yagona model ishlab chiqildi.

$$rel = \frac{(tt * S_1) + (np * S_2) + (nf * S_2) + (sm * S_3)}{u} \quad (3)$$

bu yerda  $tt$  – foydalanuvchi sessiya davomida sahifada qancha vaqt sarflagani,  $np$  – sahifaga foydalanuvchi necha marta qaytganligini bildiradi,  $nf$  – foydalanuvchi sahifadagi turli bo‘limlarni necha marta ko‘rganligi,  $sm$  – foydalanuvchi sahifani qanchalik pastgacha scroll qilgani,  $S_i$  – parametrlearning muximlilik darajasi,  $u$  – foydalanuvchilar.

Mazkur tadqiqot ishida shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish jarayonlarini samarali tashkil etish uchun kognitiv model ishlab chiqildi. Ushbu model yordamida foydalanuvchidan olingan kiruvchi ma’lumotlar sahifada sarflangan vaqt, tashriflar soni, fragmentlar soni, scroll darajasi bilimlar bazasida saqlanadi va qayta ishlanadi.



**6-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan kognitiv model**

**x1 – Input (kiruvchi ma’lumotlar)**

x2 – qidiruv so‘rovi:

x3 – sahifada o‘tkazilgan vaqt.

x4 – tashriflar soni.

x5 – fragmentlar soni.

x6 – scroll darajasi.

**x7 – Knowledge base (bilimlar bazasi)**

x8 – vaqt vazni.

x9 – tashrif vazni.

x10 – fragment vazni.

x11 – scroll vazni.

**x12 – Cognitive process (kognitiv jarayon)**

**x13 – Learning (o‘rganish)**

**x14 – Decision (qaror)**

x15 – relevans qiymati.

x16 – sahifalar vazni.

**x17 – Feedback (qayta aloqa).**

Dissertatsiyaning “**Ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimida kategorik klasterlash usuli asosidagi joriy extiyojiga mos axborot olish hamda ishlab chiqilgan modelni samaradorligini baholash**” nomli bobida foydalanuvchining joriy ehtiyojlariga mos axborotlar olish jarayoni ishlab chiqildi. Foydalanuvchi qidiruv tizimidan veb-saytga tashrif buyurgan qidiruv so‘rovi orqali o‘z ehtiyojlarini oldindan tavsiflaydi. Shuning uchun veb-saytni shaxsga yo‘naltirish uchun, qidiruv profiliga qo‘shimcha ravishda, navigatsiya so‘rovini hisobga olish taklif etiladi. Keyingi bosqichda esa ishlab chiqilgan algoritnik modelning funksional imkoniyatlari va amaliy samaradorligini ob’ektiv mezonlar asosida baholashga yo‘naltirilgan eksperimental tahlillar amalga oshirildi. Foydalanuvchining joriy ehtiyojlariga mos axborotlar olish uchun Dprofit funksiyasidan foydalindi.

$$Dprofit = \frac{S(Cqn_i)}{W(Cqn_i)^r} - \frac{S(Cqp_i)}{W(Cqp_i)^r} \quad (4)$$

bu yerda  $S(Cqn_i)$  – yangi klasterning ummumiy elementlar soni,  $W(Cqn_i)$  – yangi klasterning noyob elementlar soni,  $S(Cqp_i)$  – klasterning ummumiy elementlar soni,  $W(Cqp_i)$  – klasterning noyob elementlar soni.


Navigatsiya profillari tabiiy ravishda qidiruv profillari bilan o‘xshashlikka ega, ularning asosiy farqi shundaki, navigatsiya profillari kichik hajmga ega bo‘ladi. Qidiruv profillari esa turli hajmlarda bo‘lishi mumkin va vaqt o‘tishi bilan foydalanuvchi tomonidan ko‘rilgan sahifalar soni ortib boradi. Shuning uchun bu ma’lumotlarni samarali klasterlash uchun CLOPE algoritmidan foydalanish taklif qilinadi va profit funksiyasidan foydalanildi.

$$profit(Cnp, r) = \frac{\sum_{i=1}^k \frac{S(Cnp_i)}{W(Cqp_i)^r} \times |Cnp_i|}{\sum_{i=1}^k |Cnp_i|} \quad (5)$$

bu yerda  $S(Cnp_i)$  –  $i$ -klasterdagi barcha sahifalar soni,  $W(Cnp_i)$  –  $i$ -klasterdagi har xil sahifalar soni,  $|Cnp_i|$  – klaster ichidagi navigatsiya profillarining soni,  $k$  – klasterlar soni,  $r$  – normallashtirish parametiri, bu yerda  $r = 2$  qiymat berildi.

Ilmiy tadqiqot ishida foydalanuvchi joriy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan algoritmi taklif etildi. Algoritm foydalanuvchining real vaqt rejimidagi harakatlarini, ya’ni sahifalardagi scroll qilish, ko‘rish va so‘rovlar asosida ehtiyojlarini tezda aniqlaydi. Foydalanuvchining qidiruv profili va navigatsion faoliyati birlgilikda tahlil qilinib, unga mos sahifalar tavsiya qilinadi. Bu algoritm tavsiya mexanizmini shaxsiylashtirishga yordam beradi va har bir foydalanuvchi uchun individuallashtirilgan tajriba yaratadi. Klasterlash texnikasi yordamida foydalanuvchi o‘xshash ehtiyojga ega guruhlar bilan taqqoslanadi. Bu esa tavsiyalar aniqligini oshirib, sahifalar dolzarbligini avtomatik baholash imkonini beradi. Algoritm sahifalarni foydalilik darajasi bo‘yicha ustuvorlikka ajratib, eng dolzarb ma’lumotlarni birinchi o‘ringa chiqaradi. Yondashuv real vaqtda ishlaydi va foydalanuvchining har bir qadamiga moslashadi. Shu orqali tizimda interaktivlik

kuchayadi va foydalanuvchi tizimga qayta tashrif buyurish ehtimoli ortadi. Ushbu algoritm foydalanuvchi harakatlarini tahlil qilib, ularga mos ma'lumotlarni taqdim etishda samarali yechimdir. Ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, algoritm foydalanuvchi tajribasini yaxshilash va xizmat sifatini oshirish uchun muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.



7-rasm. Foydalanuvchining joriy axborotga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishga yo'naltirilgan algoritmi

Shaxsga yo'naltirilgan tavsiya modelining samaradorligini baholash uchun Kaggle platformasidan olingan, 6000 dan ortiq foydalanuvchi sessiyalarini o'z ichiga olgan ma'lumotlar to'plamidan foydalanildi. Ma'lumotlar to'plami ikki teng qismga ajratilib, birinchi qismi tavsiya tizimini o'qitish ikkinchisi esa baholash maqsadida qo'llanildi. Baholash bosqichida har bir foydalanuvchi sessiyasida tizim tomonidan tavsiya etilgan sahifalar to'plami foydalanuvchining real tanlovlari bilan solishtirildi.

Bu solishtirish natijalari asosida tizim tavsiyalarining to‘g‘riliqi, ya’ni aniqlik ko‘rsatkichi aniqlab borildi. Aniqlik ko‘rsatkichi foydalanuvchiga taqdim etilgan tavsiyalar orasida real tanlangan sahifalarning ulushini aniqlash orqali hisoblab chiqildi.

$$Aniqlik = \frac{|R_p \cap R_a|}{|R_p|} * 100\% \quad (6)$$

bu yerda  $R_p$  –tavsiya etilgan to‘plami,  $R_a$  –qiziqish bildirilgan to‘plam.

**3-jadval. Taklif etilgan modelning aniqliligini baholash**

Sahifa	LightFM	BPR	T.E-model
1-sahifa	3%	7%	21%
2-sahifa	8%	11%	30%
3-sahifa	10%	23%	35%
4-sahifa	22%	26%	46%
5-sahifa	30%	38%	53%
6-sahifa	33%	44%	61%
7-sahifa	35%	45%	63%
8-sahifa	38%	47%	65%
9-sahifa	39%	52%	66%
10-sahifa	40%	53%	67%
11-sahifa	41%	53%	68%
12-sahifa	42%	54%	69%
13-sahifa	43%	55%	70%
14-sahifa	44%	56%	71%
15-sahifa	45%	57%	72%
<b>O‘rtacha</b>	<b>31%</b>	<b>41%</b>	<b>57%</b>

Jadvalda ko‘rsatilganidek o‘rtacha qiymatlarni hisoblash natijasiga ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan modeli eng yuqori o‘rtacha qiymatga ega bo‘lib, 57% ga yetgan. BPR modeli esa 41% bo‘lib, bu tizim samaradorligining o‘rtacha darajada ekanligini ko‘rsatadi. LightFM modelining o‘rtacha ko‘rsatkichi 31% bo‘lib, u boshqa ikki modelga nisbatan pastroq natija ko‘rsatib o‘tdi.


Shaxsga yo‘naltirilgan tavsiya modulining samaradorligini yanada aniq baholash maqsadida keyingi bosqichda techshop.uz sayti misolida amaliy tajribalar o‘tkazildi. Bunda avval mavjud bo‘lgan “o‘xhash elementlarga asoslangan oddiy tavsiya moduli” va ishlab chiqilgan “shaxsga yo‘naltirilgan modul” ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Baholash jarayonida bosilish foizi, o‘rtacha sessiya davomiyligi, qaytish foizi va foydalanuvchilar soni kabi asosiy KPI ko‘rsatkichlar olingan. Quyidagi jadvalda ularning o‘zgarish dinamikasi keltirilgan.

#### 4.-jadval. Shaxsga yo‘naltirilgan modulining samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	O‘xshash elementlar (tavsiya moduli)	Shaxsga yo‘naltirilgan modul	O‘zgarish
Tavsiyalarni tanlash (CTR)	4,1 %	5,2 %	+26 %
O‘rtacha sessiya	3,9 daqiqa	5, daqiqa	+17 %
Tizimdan chiqib ketish (Bounce rate)	47 %	32 %	-15 %
Foydalanuvchilar soni	23000+	26000+	+13%

Ushbu jarayon natijasida relevans hisoblash uchun zarur bo‘lgan faktlar tayyorlanadi va tizimning qaror qabul qilish mexanizmi qo‘llab-quvvatlanadi. Bundan tashqari foydalanuvchining tavsiyalarni tanlashi yoki rad etishi kabi feedback ma’lumotlari asosida qoidalar yangilanib boradi va tizim o‘zini moslashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ishlab chiqilgan axborot tizimi foydalanuvchilar uchun qulay va samarali interfeysni taqdim etadi. Tizim dizayni barcha funksiyalarni vizual ravishda aniq ko‘rsatib, ma’lumotlarni boshqarish va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Foydalanuvchilar tizim orqali kontentni boshqarish, statistika va tahlillarni ko‘rish, shuningdek, sahifalarni sozlash imkoniyatiga ega bo‘ladilar.



8-rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan axborot tizimining boshqaruv paneli interfeysi

Ushbu tizimda turli modullar va bo‘limlar bir-biri bilan uzviy bog’langan holda ishlaydi. 4-rasmda tizimning asosiy modullari, ularning ichki bo‘limlari va funksiyalari ko‘rsatilgan. Har bir modulning vazifasi foydalanuvchilarning talablariga javob beruvchi shaxsga yo‘naltirilgan xizmatlarni yaratishga qaratilgan.

## XULOSALAR

“Shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimi” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Dissertatsiyada shaxsga yo‘naltirilgan ma’lumotlarni boshqarish axborot tizimining konseptual modeli ishlab chiqildi, unda foydalanuvchi xatti-harakatlari asosida individual ehtiyojlarga mos ma’lumotlarni taqdim etish mexanizmlari shakllantirildi.

2. Ma’lumotlarni boshqarish tizimlari tahlili natijasida mavjud CMS PrestaShop, UMI, Muvsayt, Oqila, Ulkan tizimlarida shaxsga yo‘naltirish imkoniyatlari yetarli emasligi aniqlanib, taklif etilgan model bu kamchiliklarni bartaraf etuvchi yangi yondashuv sifatida ishlab chiqildi.

3. Foydalanuvchi ehtiyojlarini aniqlash va ularga mos axborotlarni taqdim etish uchun tizimning funksional tuzilmasi IDEF0 metodologiyasi asosida, ma’lumotlar bazasining mantiqiy tuzilmasi esa IDEF1x modeli orqali ishlab chiqildi.

4. Foydalanuvchi qidiruv profillarini samarali klasterlash maqsadida CLOPE algoritmi moslashtirildi hamda boshqa mashhur klasterlash algoritmlari K-Means, DBSCAN, Fuzzy C-Means, Hierarchical, BIRCH bilan taqqoslandi. Natijalar CLOPE algoritmining aniqligi 95% va hisoblash vaqt 1–2 soniya bo‘lganini ko‘rsatdi.

5. Foydalanuvchi qidiruv so‘rovlarini o‘xshashligini aniqlashda Jaccard metrikasi asosida tahlil o‘tkazildi va u foydalanuvchilarning doimiy axborot ehtiyojlarini aniqlashda samarali ko‘rsatkich sifatida tanlandi.

6. Shaxsga yo‘naltirilgan tavsiya modelining samaradorligi Kaggle platformasidan olingan 6000 dan ortiq foydalanuvchi sessiyalari asosida baholandi. Eksperimental natijalarga ko‘ra, taklif etilayotgan modelning o‘rtacha aniqlik darajasi 57%, LightFM modeli 41%, BPR modeli esa 31% ni tashkil etdi.

7. Techshop.uz veb-sayti misolida o‘tkazilgan amaliy tajribalar shaxsga yo‘naltirilgan modulning samaradorligini tasdiqladi: CTR ko‘rsatkichi 26% ga oshdi, o‘rtacha sessiya davomiyligi 17% ga uzaydi, bounce rate 15% ga kamaydi, foydalanuvchilar soni esa 13% ga ortdi.

8. Ishlab chiqilgan model foydalanuvchilarning navigatsiya va qidiruv profillarini birlashtirgan holda, real vaqt rejimida shaxsiy tavsiyalar shakllantirish imkonini beradi.

9. O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universitetida ishlab chiqilgan shaxsga yo‘naltirilgan model sinovdan o‘tkazildi. Natijalarga ko‘ra axborot qidiruvi tezligi oshdi, tavsiyalar aniqligi 4–6% ga yaxshilandi. Bu tizimning amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

10. MCHJ QK “SIMPLEX ITC” kompaniyasida tizim amaliyotga joriy etildi. Natijalarga ko‘ra foydalanuvchi ehtiyojlariga mos tavsiyalar shakllanishi yaxshilanib, samaradorlik 6–8% ga oshdi. Bu modelning real sharoitda ishlash barqarorligini isbotladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

---

**ТАШКЕНТСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИНФОРМАЦИОННЫХ  
ТЕХНОЛОГИЙ ИМЕНИ МУХАММАДА АЛ-ХОРАЗМИЙ**

**САИДОВ САМАНДАР МУЗАФФАРОВИЧ**

**ИНФОРМАЦИОННАЯ СИСТЕМА УПРАВЛЕНИЯ  
ПЕРСОНАЛИЗИРОВАННЫМИ ДАННЫМИ**

05.01.10 – Информационные системы и процессы

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ  
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Ташкент–2025**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером B2025.1.PhD|T5318.

Диссертация выполнена в Ташкентском университете информационных технологий имени Мухаммада ал-Хоразмий.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета ([www.tuit.uz](http://www.tuit.uz)) и на Информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Муминов Баходир Болтаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Хамдамов Уткир Рахматиллаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Каландаров Ильёс Ибодуллаевич**  
доктор технических наук, профессор

**Ведущая организация:**

**Гулистанский государственный университет**

Защита диссертации состоится « 11 » 12 2025 года в 14:00 часов на заседании научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.01 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108, Тел.: (99871) 238-64-43, e-mail: [tuit@tuit.uz](mailto:tuit@tuit.uz) ).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий (регистрационный номер № 382). (Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108, Тел.: (99871) 238-64-70).

Автореферат диссертации разослан « 29 » ноябрь 2025 года.  
(Реестр протокола рассылки № 32 от « 29 » ноябрь 2025 года).

**М.М.Мусаев**

Председатель научного совета  
по присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, профессор

**Э. Ш. Назирова**

Учёный секретарь научного совета по  
присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, профессор

**Дж.Б. Султанов**

Председатель научного семинара при научном  
совете по присуждению учёных степеней,  
доктор технических наук, доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и необходимость темы диссертации.** В мире особое внимание уделяется совершенствованию персонализированных информационных систем с использованием информационно-коммуникационных технологий. В частности, всё более важным становится автоматизированное управление и анализ информации, размещённой на веб-ресурсах, определение потребностей пользователей и разработка на их основе персонализированных рекомендаций. Для эффективной организации подобных процессов необходимо использовать современные информационные модели и актуальные методы интеллектуальной обработки данных. Модели и интеллектуальные алгоритмы, построенные на основе когнитивного подхода, обеспечивают более полное и достоверное представление профилей пользователей. Это, в свою очередь, повышает эффективность персонализированных информационных систем и обеспечивает предоставление пользователю наиболее значимой и актуальной информации, адаптированной к его индивидуальным потребностям.

В мировой практике приоритетное внимание уделяется развитию человеко-ориентированных информационных систем, обеспечивающих автоматизированное управление на основе анализа пользовательской активности и поисковых запросов, а также организацию удалённой обработки и управления данными. Особое значение приобретает развитие технологий, ориентированных на предоставление пользователям автоматизированных сервисов, а также применение интеллектуальных моделей, обеспечивающих повышение эффективности и качества многоэтапных процессов информационного обмена. Одновременно ведутся научные исследования, направленные на интеграцию информационных систем различного профиля, разработку рекомендаций, адаптированных к индивидуальным потребностям пользователей, а также на автоматизацию процессов управления, основанных на учёте индивидуальных и групповых профилей. В этом контексте особую значимость приобретает разработка интеллектуальных и методологических основ для эффективной организации процессов управления человеко-ориентированной информацией, координации рекомендационных механизмов и автоматизированного предоставления пользователю наиболее актуальных данных. Эти задачи решаются с учётом опыта развитых стран, таких как США, Япония, Южная Корея, Китай, Польша, Российская Федерация, Азербайджан, Казахстан и других.

В Республике Узбекистан проводится широкомасштабная работа по повышению уровня информатизации отраслей и предприятий. Особое внимание уделяется созданию национального контента и разработке оптимальных методов обработки данных. Эти процессы опираются на интеллектуальные системы управления, использующие цифровые технологии и аппаратно-программные средства. В Указе Президента Республики

Узбекистан «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» определены задачи по широкому внедрению информационно-коммуникационных технологий в системы управления. В реализации этих задач особое значение имеет развитие человеко-ориентированных информационных систем, совершенствование автоматизированных механизмов управления с учётом постоянных потребностей пользователей. К числу приоритетных направлений относятся укрепление цифровой инфраструктуры, разработка современных программных продуктов, а также интеграция различных баз данных в единую платформу. В частности, остаются актуальными задачи рациональной организации процессов обработки данных. Требуется разработка концептуальных и вероятностных моделей многоуровневого информационного обмена. Кроме того, важным направлением является создание алгоритмов и программных средств формирования рекомендаций на основе анализа пользовательских профилей.

В Указе Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ–60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы» определены приоритетные направления развития сферы информационно-коммуникационных технологий. Стратегия предусматривает вывод данной сферы на новый качественный этап и внедрение современных цифровых решений. Настоящее диссертационное исследование соотносится с обозначенными задачами. Оно вносит вклад в их практическую реализацию и способствует достижению целей, сформулированных в государственной программе развития. Полученные результаты могут быть применены при проектировании и внедрении информационных систем, а также при разработке программных продуктов. Их использование возможно как в государственных учреждениях, включая органы местного самоуправления, так и на предприятиях реального сектора экономики.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики.** Данное исследование выполнено в рамках IV приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан «Информатизация и развитие информационно-коммуникационных технологий».

